

**“O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING MOHIYATI VA TARBIYAVIY  
AHAMIYATI”**

*Jumaniyazova Farangiz*

*Urganch RANCH texnologiya  
universiteti 2-kurs talabasi*

**Annatatsiya.** Ushbu maqollarning shakllanish tarixi, mohiyat va xususiyatlari haqida so‘z borgan. Shuningdek maqollarning xalqimiz madaniyatida tutgan o‘rnini ayrim maqollar misolida tahlil qilingan

**Kalit so‘zlar:** folklorahumoslik, maqol, xakq o‘yinlari, matal, iboralar.

**Аннотация.** Рассмотрена история формирования, сущность и особенности этих пословиц. Также на примере некоторых пословиц анализируется роль пословиц в культуре нашего народа.

**Ключевые слова:** фольклор, пословицы, игры в правду, язык, выражения.

**Annotation.** The history of formation, essence and features of these proverbs were discussed. Also, the role of proverbs in the culture of our people is analyzed on the example of some proverbs

**Key words:** folklore, proverbs, games of truth, language, expressions.

Maqollar bizning nutqimizga juda qadim zamonlarda kirib kelgan. Lekin o‘sha zamonlarda maqollarning kelib chiqishi haqida kam odom o‘ylagan. Bunga sabab esa o‘sha davrlarda barqaror frazeologik birliklarning mavjud bo‘lmaganligidir. Xalq o‘zining hayotiy tajibasidan olgan, xulosalarini, falsafiy mulohazalarini maqollar orqali ifodalagan. Qadimiy dostonlarimizda keltirilgan xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan maqol, matal, rivoyatlar haligacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Maqollar xalqimiz so‘zlashuvda, adabiyotida, bir so‘z bilan aytganda fikrni qisqa, lo‘nda ifodalash uchun ishlatilib kelyapti.

“Maqol” atamasi arabcha “qavlun” - gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan.

Xalqimiz maqolni “otalar so‘zi” ham deydilar. Bundan ming yillar avval ajdodlarimiz maqollarni “sav” deb ataganlar. Alisher Navoiy bobomiz ijodida esa maqol atamasi “masal” tarzida berilgani ma’lum. 20-asrning boshlarigacha “masal” atamasi qo‘llanilib kelinganligini va o‘tgan asrning ikkinchi choragidan boshlab maqol so‘zi tez-tez uchray boshlaydi. Natijada esa 20-asrning yarmidan boshlab asosan “maqol” nomi ostida muntazam qo‘llanilib kelinmoqda.

Xaql maqollari asrlar davomida o‘zining shakl va mazmun jihatdan benazirligi bilan buyuk va taniqli adiblar e’tiborini jalb qilib keldi. Hikmatli so‘zlar nafaqat nutqning go‘zalligini balki ifodaliliginu ham yaqqol ko‘rsatadi. Asarlar tarkibida

maqollarlarning qo'llanilishi esa adibning mahorati v hamda iste'dodini to'liq ochishcha ko'maklashgan holda badiiy asarning tasirchanligini ham oshiradi.

Yusuf Xos Hojibdan tortib Muqumiygacha, Alisher Navoiydan tortib Abdulla Qahhorgacha xalq maqollaridan samarali foydalanganlar. Serqirra ajdodlarimiz xaql o'zi yaratgan maqollaridan doston , ertak, rivoyat va naqlarda umumli foydalanganlar

Maqollar asrlar mobaynida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan , obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli va chuqur mazmunli qisqa gap hisoblanadi. Shu o'rinda aytish joizki biz yuqorida maqol atamasining dastlab , matal tarzida yuritilganligi haqida ma'lumot berdik. Lekin bugungi kunga bu ikki atama haqida alohida alohida mulohazalar mavjud.

Maqol- to'liq fikr mavjud bo'lgan, xalqning hikmatlarini o'zida mujassamlashtirgan tilsim , deyilsa,

Matal- muayyan hayotiy hodisani aniq va to'g'ri belgilab beradigan obrazli ifoda hisoblanadi. Maqol va matallarninf umumiylariga qisqalik, barqarorlik, keng foydalanish kiradi. Bu ikki atama turli xil badiiy va grafik vositalar hamda uslublarda qo'llaniladi.

O. Madayev : "Maqol va matallar bir-biriga shakl.va mazmun jihatdan yaqin, ammo, maqollar mustaqil janr bo'lib, matalda bu mustaqillik ko'zga tashlanmaydi" degan g'oyani ham ilgari surgan.

Xalq maqollarida qaysi mavzu, hayotning qaysi sohasi haqida fikr yuritmasin, tanlangan muammo har tomonlama atroflicha yoritiladi. Bularning hammasi o'zbek xalqining asrlar davomida naqadar dono va aqli ijdor farzandlariga ega ekanini dalillaydi. Maqollarni tasnif qilishning bor turida mazmun yetakchilik qiladi. Unga ko'ra, Vatan, mehnat, xalq, ilm-hunar, mardlik, mehmon, tadbirkorlik, yalqovlik, muhabbat, vafo kalbi jami 30ga yaqin mavzular qayd etilgan.

Xalqimiz yaratgan maqollar mazmun jihatdan chuqur bo'lishi bilan birga nadiiy jihatdan ham mukammaldir. Ularda go'zal o'xshatishlar, tovushdoshlik, mibolag'alar, majoziy obrazlar yetakchi o'rinni egallaydi. "Ona bilan bola gul bilan lola" maqolida o'xshatish badiiy san'ati qo'llangan. Maqolning mazmunida pna bilan bolaning gul bilan lolaga o'xshatilishi nazarda tutiladi. Endi "Boy boyga boqar, soy soyga oqar" maqoliga diqqat qilaylik. Bu maqolda "boyga" va "soyga" so'zleri ichki qofiyani, "boqar" va "oqar" so'zleri tashqi qofiyani tashkil etadi. "b", "o", "e", "r", "s" kabi tovushlar maqolning badiiy jihatdan mukammalligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ma'lum bo'ladiki, xalqimiz yaratgan maqollar faqat mazmun jihatdan emas, badiiy jihatdan gam ajoyib so'z san'ati namunalari sifatida baholanishi mumkin. Yuqorida keltirilgan fikrlardan quyidagi xulasalarga kelishimiz mumkin:

Xalq maqollari asrlar davomida o'zbek xalqining hayot tajribasini badiiy jihatdan ifodalovchi so'z san'ati namunasi sifatida yashab keldi. Xalq maqollari ming yillar davomida shoirkva yozuvchilar tomonidan badiiy asarlarga kiritildi va

folklorizm namunasi sifatida so‘z san’atidan o‘rin oldi. Folklorshunoslik ilmida shoir va yozuvchilar tomonidan xalq maqollarining asar matnida keltirilishi folklorizm deb ataladi. Natijada bu holat ijodkorning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan munosabati ijobiy ekanini tasdiqlaydi. Bunga misol tariqasida esa Mahmud Koshg‘ariyning turkiy so‘zlarga izoh berish maqsadida keltirga maqollarini keltirishimiz mumkin. Jumladan, Alisher Navoiy lirkasida "Chiqmag‘on jong‘a umid", "It uyib qoldiyu, ko‘chdi karvon", Bobir ijodida: ""Bo‘lib turur ikki ko‘zin yo‘lida to‘rt", Abdulla Qahhor ijodida "Otning o‘limi itning bayrami" bulardan tashqari yana "Alpomish" dostonida "Sulton suyagini xo‘rlamas" , "Elakka borgan xotinning ellik og‘iz gapi bor" kabi maqollar ko‘plab uchraydi.

Maqol va iboralarolami olami ,soha mutaxasislari hisoblangan olimlar: tilshunoslar, adabiyotshunoslar, paremiologlar, folklorshunoslar, etnograflarning taqqiqotlar olib borishlari uchun "hosildor maydon" hisoblanada. Bu tabiiy hol, chunki shaklan ixcham, sodda bo‘lishiga qaramay, turli tadqiqot nuqtai nazarlaridan ko‘rib chiqilishi mumkin. Ularni O. Madatev "shaxsi umumlashgan gaplar" deb ataydi.[O. Madayev, 2016:65] . Shu bois maqolning sintaktik birlik sifatida shakliy tuzilishi grammatikada o‘rganilishi lozim.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, har bir xalqning o‘ziga xos madaniyat asosida maqollari ham shakllanadi va shu mamlakatning madaniy merosiga aylanadi.

Maqollarda, asosan, o‘sha xalqning urf odatlari, an'analari, quvonchi va qayg‘usi o‘z aksini topadi. Boshqa xalqlarning maqollari tarjima qilinganda , milliylikka alohida e’tibor berilishi katta ahamiyatga egadir. Maqollar shu bilan birga xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Mominjon Sulaymonov "O‘zbek xalq ertaklari ijodi"- "Namangan" nashriyoti 2012-yil
2. Omonulla Madayev "O‘zbek xakq og‘zaki ijodi"- Toshkent "Mumtoz so‘z" 2010
3. Internet.Maqollarning o‘z va ko‘chma ma’nolari, maqollar tahlili. Maqol va matallar. Dars CNT
4. Zarina Alqorova "Maqol va matallarning o‘zaro farqli jihatlari"
5. Surayyo Bozor qizi Hamrayeva "Maqollar mohiyati va xususiyatlari"